

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyiha turini: Shartnoma

2. Loyiha nomi: "UNICON SOFT" MCHJ bilan Chinoz tuman Irrigatsiya bo'limi o'rtasida idoralararo hujjat almashishning yagona elektron tizimi - IJRO.GOV.UZ tizimiga ulanish bo'yicha 07.01.2022 yil, №525-sonli shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Chinoz tuman Irrigatsiya bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2022 yil 07-yanvar kuni markazga kiritilgan.

Chinoz tuman Irrigatsiya bo'limi bilan "UNICON SOFT" MCHJ o'rtasida tuzilayotgan, umumiy bahosi 780 000 so'm (yetti yuz sakson ming) so'm miqdoridagi shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Taraflar o'rtasida tuzilayotgan mazkur qo'shimcha kelishuv shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonun hujjatlari talablariga mos ravishda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralari qo'llanilishi, kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda o'zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



J. Muhammadiyev